

## Kutilgan joyda kutilgan tadbirlar, natijalar va taqdirlash marosimi

2019-yilning 11-17-noyabr kunlari Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida "Yoshlar haftaligi 2019" loyihasi amalga oshirildi hamda ajoyib tadbirlar bo'lib o'tdi. "Yoshlar haftaligi 2019" loyihasi institut rahbariyati bilan hamkorlikda Yoshlar ittifoqi institut boshlang'ich tashkiloti tomonidan o'tkazildi. Ikkinci bor tashkil etilayotgan "Yoshlar haftaligi" talabalarining intiluvchanligi, tashabbuskorligini va tashkilotchilik faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha, beshta muhim tashabbusni o'zida qamrab olgan holda ijodkorlar bilan uchrashuv, rassomchilik, dizayn, amaliy san'at bo'yicha tanlov va ko'rgazmalar, karvin san'ati, "The Cover Up" va "Aktyor shou tanlovlari, "Innoday" innovatsion ishlanmalari, yosh olimlar ko'rgazmalari, Munozara-debat" o'yinlari, kitob taqdimotlari, sport musobaqalari, nima?qachon? qayerda? o'yini, qizlar uchun alohida tadbirlar, rus guruhdagi talabalar uchun alohida tadbirlar hamda davra suhbatlari tashkil etildi.



Barcha tadbirlarda institutda tahsil olayotgan talabalar, professor-o'qituvchilar, taniqli ilm-fan arboblari, san'at yo'nalishida ijod qilayotgan ijodkorlar, ommaviy axborot vositalari hodimlari ishtirok etdilar. Haftalikning har bir kunida alohida dastur asosida tadbirlar o'tkazildi, talabalar turar joyidagi talabalar qamrab olindi. Jamoat tashkilotlari birgalikda faoliyat olib borishdi. Institut Kasaba uyushmasi qo'mitasi, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, institut Xotin-qizlar qo'mitasining hamkorligi institut yosh hodimlari hamda dekan muovunlarining ham avvalgidanda faollashishiga sabab bo'ldi. Institut rahbariyati, Institut Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan talabalar uchun munosib ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ishlari olib borildi. Yoshlar haftaligi doirasida tanlovlar va loyihalarda g'olib bo'lganlar, haftalikda faol ishtirok etganlar institut rektorining diplom, faxriy yorliqlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Barcha fakultetlarda ta'lim oluvchi talabalar qamrab olindi, 21 dan ortiq tadbirlar, tanlovlar dasturga kiritildi. Taqdirlash marosimi Mustaqillik maydoni yonidagi muhtasham Yoshlar ijod saroyida o'tkazildi.



17-noyabr Xalqaro talabalar kuniga bag'ishlab konsert dasturi tayyorlandi va yig'ilganlar e'tiboriga havola etildi. QVZ chiqishlari namoyish etildi. Barcha g'olib bo'lgan talabalar institut rektorining maxsus, foydali sovg'alari bilan taqdirlandilar. Albatta, diplomlar va sertifikatlar bu nisbiy tushuncha. Kimnidur yodimizdan chiqargan bo'lsak bu tashliliy ishlarning xatosidir. Katta tadbirlarda ham kichik xatolar bo'ladi. Lekin, ancha bo'lmasa ozroq o'shish bor. Kamchiliklarni to'g'rileyymiz albatta, yaqin kunlarda. Bugun talabalar kuni institutimiz talabalari uchun Mustaqillik maydonida boshlandi. Muhimi kayfiyat tashkiliy ishlarda qatnashgan talabalar kayfiyati yangi do'stlar, tajriba, eng muhimi talabalar qamrovi va hursandchiligi. Barcha Yoshlar haftaligi ishtirokchilari nomidan, tashkilotchilari nomidan institut rahbariyatiga, fakultet dekanlari va dekan muovunlariga, institut Kasaba uyushmasi qo'mitasiga, Jismoniy madaniyat va sport kafedrasiga, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashiga, Toshkent shahar Kengashiga, M.Ulug'bek tuman Kengashiga, Yoshlar ijod saroyiga, Yoshlar radiosи, Navro'z FM radiosи, Oriatdono radiosiga barchaga minnatdorchilik izhor etamiz.



Ustozim aytgan edi "Hammani ko'nglini birdek olaolmaysiz va har qanday tadbirda albatta kichik kamchiliklar bo'ladi" -deb, shunday ekan harakatdan to'xtamaymiz. Sovg'a uchun, qandaydir oddiy qog'oz uchun yoki taqdirlash uchun emas, odam jamiyatda o'z o'rnnini topishi uchun bunday ishlarga bosh qo'shishi kerakligini barcha tengdoshlarimiz anglashi lozim. Fakultet talabalari bilan ishtirok etgan

bo'lsangiz bu sizning vazifangiz hamda fakultet shani uchun kurashishingiz edi. Bunda umumiylikni ko'rish kerak xolos. Yangi o'quv haftasi bu o'quv haftasidir barchaga omad va yaxshi kayfiyat. Lekin, tan olish kerak organizatorlarga gap yo'q, rahmat barchaga. Keyingi tadbirlarda ham faollik kutib qolamiz.

**Yoshlar haftaligidagi umumiy natijalar quyidagicha:**

24 ta loyiha va tadbirlar, Qamrov darajasi 25 %

**1-o'rin** SXTE va B fakulteti dekani, dekan muovinlari va fakultet yoshlar yetakchisiga

**2-o'rin** QXM fakulteti dekani, dekan muovunlari va fakultet yoshlar yetakchisiga

**3-o'rin** QSXET fakulteti dekani v.v.b, dekan muovunlari hamda fakultet yoshlar yetakchisiga nasib bo'ldi. G'oliblarni tabriklaymiz. Oldinda talabalar karnavali.



**Institut yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti axboroti**

**Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov**